# TTPU: ta’lim sohasiga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish yo‘lida

Hozirgi kunga kelib, innovatsion texnologiyalar hayotimizning har bir jabhasiga misli ko‘rilmagan tezlik bilan kirib bormoqda. Ana shunday texnologiyalardan bo‘lgan “virtual reallik” ning ta’lim sohasidagi ahamiyati tobora ortmoqda.




Universitet o‘quv jarayoniga shunday innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish maqsadida, Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti, hamda “ALPHA DX GROUP” kompaniyasi o‘rtasida qo‘shma korxonani tashkil etish bo‘yicha kelishuv imzolandi.

Asosiy maqsad, ta’lim sifati va talabalarning ta’lim olishga qiziqishini oshirish, o‘quv jarayoniga virtual reallik, blokcheyn va NFT texnologiyalarini joriy etish va ushbu texnologiyalar asosida o‘quv materiallar (kontentlar)ni shakllantirish.

Yangi innovatsion konsepsiyani shakllantirish orqali, AR va VR texnologiyalariga asoslangan, EduVerse innovatsion konsepsiyasini Turin Politexnika Universitetida o‘quv jarayonlariga tadbiq etish va “2+2” ta’lim dasturlarini ochish ko‘zda tutilga. Ushbu maqsadda universitetimizda alohida laboratoriya shakllantirilib, EduVerse uchun kerak bo‘ladigan uskunalar sotib olinmoqda

Kelgusida EduVerse orqali boshqa ta’lim maskanlariga yangi kontent yaratish maqsadida hamkorlar bilan o‘quv platformasini shakllantirish rejalashtirilgan.




TURIN POLYTECHNIC UNIVERSITY IN TASHKENT
EDUCATION • SCIENCE • PRODUCTION
2009
www.polito.uz